

Мамлакатимизда ислом молиясини ҳаётга татбиқ этиш бўйича ҳам ишлар жадал тус олмоқда. Ҳозирда “Арех insurance” суғурта компанияси ўз фаолиятида исломий суғурта – “**Такофул**”ни қўллаш бошлади. Бугунги кунда мавжуд банкларда “ислом дарча”ларини очиш ҳамда “**Сукук**”-исломий қимматли қоғозларини чиқариш бўйича қонун лойиҳаси ишлаб чиқилиб, уни тасдиқлаш учун Олий Мажлисга киритилган.

Хулоса қилиб айтганда, юртимизда ислом иқтисодий тафаккурининг ривожланиши миллий иқтисодиётимиз ва анъанавий банк-молия соҳаларига муқобил молия тизимининг кириб келиши учун мустаҳкам замин яратади. Бу эса ўз навбатида аҳолимиз қўлида сақланаётган катта миқдордаги бўш маблағларни жалб этиш ва уларни истиқболли лойиҳаларга йўналтириш имкониятини яратади. Ислом иқтисодиёти ва молияси каби мусулмон жамоаси ҳаёт фаолиятида муҳим ўринга эга бўлган соҳанинг равнақи яқин келажакда ўзининг ижобий самараларини бериши муқаррар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш.Мирзиёевнинг *Ислом Ҳамкорлиги Ташкилоти ТИВлари 43-сессияси очилиш маросимида сўзлаган нутқи* <https://kun.uz/news/2016/10/18/>
2. Байдаулет Е. *Ислом молия асослари*. –Т.: “Ўзбекистон”, 2019.
3. Жўраев Б. (таржимон). *Исломий молиялар ва банк тизими: фалсафаси, тамойиллари ва амалиёти*. –Т.: “Ўзбекистон”, 2014.
4. Беккин Р. *Ислом иқтисодий модели ва замон*. –Т.: «Ўзбекистон», 2019.
Абдуллаев Р. *Основные принципы исламского банкинга и тенденции в развитии сотрудничества Узбекистана Исламским Банком Развития*. «Paradigmata poznani». – Praga: Vedecko vydavatel'ske centrum «Sociosfera – CZ», –№ 1, 2019.

AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA MOLIVAVIY TA'LIM DASTURLARINING AHAMIYATI

Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikasiyalar Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqarma boshlig'i*

Мотивавий саводхонлик дастурларини қабул қиладиган ва амалга оширадиган мамлакатлар сонини йил сайин ортиб бормоқда. Хусусан, 2007 йилда Yevropada aholining мотивавий саводхонлигини ошириш учун 180 дан ортиқ дастурлар мавжуд эди [1]. Tajribada муваффақиятли деяр е'тироф этилган миллий дастурлар AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Avstriyada, bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan мамлакатлар орасида эса – Болгария, Sloveniya va Polshada ишлаб чиқилган ва амалиётда қўлланилмоқда.

Birinchi marta siyosiy iqtisodchi A. Smit мотивавий та'лимнинг шаклланиши ва иqtisodiyotning rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni isbotladi [2]. Shunga qaramay,

faqat 1960-yillarda T. Shulst va E. Denison ta'lim aholining malakasi va qobiliyatini oshirish orqali milliy daromadning o'sishiga hissa qo'shishini ko'rsatdi [3].

Moliyaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish avvalo rivojlangan mamlakatlarda, xususan, dastlab AQSh tomonidan izchillik bilan yo'lga qo'yildi [4]. R. Kiosaki, B. Shefer, N. Hill, J. S. Slayson, Dj. Ron, V. Vattles, O. Nelli, Atkinson, Xuuston kabi amerikalik olimlar, маҳаллий олимларимиздан эса N. Jumayev, O. Do'stmuxammedov, A. Vaxobov, M. Obilov, D. Tajiboyeva kabi tadqiqotchilar moliyaviy savodxonlik yo'nalishidagi dasturlarning keng yo'lga qo'yilishida va ommaviylik kasb etishida muhim rol o'ynadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'limni yaxshilash dasturlarini amalga oshirishning xalqaro tajribasini tahlil qilishdir. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tanlab tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

Yevropa Ittifoqining 27 mamlakatida aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan tizimlar va dasturlarni o'rganish natijalari quyidagilarni ko'rsatdi [5]:

- moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarda hozirgi kunda asosiy maqsadli guruhlar sifatida bolalar va yoshlarga urg'u berilganligi;
- har ikkinchi dastur uchun Internet tarmog'i muhim bo'lib, ular orasida instrumentlar va kanallardan keng ko'lamda foydalaniladi.

Yevropa Ittifoqining xalqaro dasturlari eng ko'p Bolgariya, Latviya, Lyuksemburg, Sloveniya va Ruminiyada amalga oshiriladi.

Bir qator empirik tadqiqotlar moliyaviy ta'lim va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqladi [6]. Ta'lim yo'nalishida moliyaviy savodxonlik dasturini tashkil qilish usullarini tanlashda turli mamlakatlarda ushbu muammoni hal qilish yondashuvlarini taqqoslash o'rinlidir. Moliyaviy savodxonlik dasturlarining muvaffaqiyatli namunalari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan loyihalarni ajratib ko'rsatish mumkin. (1-jadval).

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari, strategiyalari, tashabbuslari aksariyat xollarda qo'llab quvvatlanadigan mamlakatlar bu - Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Kanada, Chexiya, Estoniya, Finlyandiya, Germaniya, Vengriya, Islandiya, Indoneziya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Malayziya, yangi Zelandiya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Ispaniya, Janubiy Afrika, Buyuk Britaniya, AQSh va boshqalardir. Ayniqsa ular orasida "AQSh da moliyaviy savodxonlik" federal dasturi ancha ommabop bo'lib, uning maqsadi aholiga malakali moliyaviy qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan amaliy bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdan iboratdir [7].

Buyuk Britaniya - moliyaviy savodxonlik sohasidagi eng ilg'or mamlakatlardan biridir. Mamlakatda 500 ga yaqin milliy va mahalliy miqyosdagi dasturlar mavjud. Buyuk Britaniyada uy xo'jaliklarini moliyaviy boshqarish bo'yicha fakultativ darslar yo'lga qo'yilgan edi. Hozirgi vaqtda davlat maktablarida "shaxsiy moliya" fanini majburiy qilish rejalashtirilgan.

Moliyaviy savodxonlik dasturlarining muvaffaqiyatli namunalari

Dasturlar nomi	Dasturlarning o'ziga xosligi	Mamlakat
"Kelajak uchun javobgarlik", "Hayot uchun darslar"	- o'qituvchilar uchun darslarni rejalashtirish; - ota-onalar uchun uslubiy qo'llanma; - bolalar uchun keyslar va rollar asosida o'yinlar tashkil etish.	AQSh
"Moliya va pedagogika", "Hamma uchun moliya"	- viktorina, glossariylar, o'yinlar, krossvordlar asosida; - bolalar va ota-onalar uchun kitoblar; - ota-onalar va o'qituvchilar uchun forum.	Frantsiya
"Moliyaviy haydovchilik guvohnomasi", "Iqtisodiy va moliyaviy savodxonlik"	- "Pul muzeyi" bo'ylab sayohatlar uyushtirish; - Evroavtobusda harakatlanish.	Avstriya
"Pulni tushunish" "Understanding Money"	- Play Real (8-10 yosh uchun); - Make It Real (10-12 yosh uchun); - Get Real (16-18 yosh uchun); - shaxsni rivojlantirish dasturlari.	Avstraliya
"Kelajagingizni rejalashtiring"	- Polsha Markaziy banki loyihalari doirasida; - Televideniye bilan hamkorlikdagi dasturlar.	Polsha
"Mening pul haftaligim" "My money week"	- "Moliyaviy daho" dasturi; - "Investor" ko'ngilochar shou dasturi.	Kanada

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, har bir mamlakatda turli yosh guruhlari, ta'lim darajalari uchun ishlab chiqilgan va mamlakatlar iqtisodiyotining milliy xususiyatlarini, ularning ta'lim tizimlarini, shuningdek moliyaviy ta'lim strategiyalarini aks ettiruvchi turli xil dasturlar, tashabbuslar va yondashuvlar mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlikni oshirishning eng samarali usuli bu moliyaviy ta'limni mavjud maktab va talabalar o'quv dasturlariga tadbiq etish bo'lib, bu ularning ijtimoiy va moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, aholining deyarli barcha qatlamlari va maqsadli guruhlarini qamrab olishga imkon beradi. Ko'rib chiqilayotgan barcha mamlakatlarda norasmiy moliyaviy ta'lim va moliyaviy ta'lim resurslari juda keng qo'llaniladi. Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni aytish kerakki, bolalar va yoshlarning moliyaviy savodxonligi va moliyaviy ta'limi bo'yicha xalqaro amaliyot yetarli tajribaga ega bo'lib, ushbu dasturlar mahalliy ta'lim makonida o'rganilishi va qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bu orqali esa aholining turmush darajasini yuksaltirish va farovonlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD/INFE. *The High-level Principles on National Strategies for Financial Education*. - Paris, August 2012.
2. Кармазин Ю. А. "Образование как инвестиции в человеческий капитал", "Молодой ученый". 2014. № 7. С.- 349–351.
3. *Управление современным образованием: социальные и экономические аспекты* : моногр. / под ред. А. Н. Тихонова. – М. : Вита-Пресс, 1998. – 256 с.

4. *Taking Ownership of The Future. The National Strategy for Financial Literacy.* – U.S. Department of Treasury, 2006. – URL : <https://www.treasury.gov/about/organizational-structure/offices/Domestic-Finance/Documents/quick-ref-guide-en.pdf> (мурожаат қилинган сана: 16.02.2023).

5. *Habschick, Seidl, and Evers, 2007: Survey of Financial Literacy Schemes in the EU27* (Обследование программ повышения финансовой грамотности в 27 странах ЕС), *VT Market Final Report, Evers Jung* (отчет подготовлен для Комиссии ЕС).

6. *FDIC, 2007: A Longitudinal Evaluation of the Intermediate-term Impact of the «Money Smart» Financial Education Curriculum upon Consumers' Behavior and Confidence; Mandell, Lewis, 2008: JumpStart Financial Literacy Surveys of High School Seniors, 1997–2008, <http://www.jumpstart.org>; Varcoe, K., A. Martin, Z. Devitto, and C. Go, 2005: Using a Financial Education Curriculum for Teens, *Financial Counseling and Planning* 16 (1); National Council of Economic Education, 2007: *Financial Fitness for Life*; Lopez-Fernandini, A., and K. Murrell, 2008: *New America Foundation New America Foundation & Citi Foundation, <http://www.newamerica.net/publications/policy/>**

7. <http://www.changes.biz/neskolko-rekomendatsiy-dlya-teh-kto-hochet-vesti-uchetlichnyih-finansov.html>

THE CONCEPT OF REAL ESTATE AND THE THEORY OF ITS TAXATION

Majidov A.A.

*Doctoral student of the scientific research center
"Scientific foundations and problems
of the development of the economy of Uzbekistan"
under the Tashkent State University of Economics*

In the Civil Code of the Russian Federation (hereinafter referred to as the Civil Code of the Russian Federation) there is a definition of the concept of "real estate". According to the Civil Code of the Russian[1] Federation "Real estate (real estate, real estate) includes land plots, subsoil plots and everything that is firmly connected with land and, that is, objects that cannot be moved without disproportionate damage to their purpose, including buildings, structures, objects construction in progress. Immovable things also include aircraft and sea vessels subject to state registration, and inland navigation vessels.

Other property may also be classified as immovable by law. This definition is very ambiguous, as it has significant shortcomings. Firstly, real estate includes objects that are firmly connected to the land and the movement of which is impossible without commensurate damage. Questions arise about the proportionality of the damage, but the authors do not elaborate on this detail. Also, modern technologies have long made it possible to change the location of a property not only without proportionate but in principle without any damage to the building, although according to the law, this is considered either impossible or not considered real estate.

Also, the question may arise why real estate includes aircraft and sea vessels, and inland navigation vessels. The answer lies in the fact that each of these objects has similar features to real estate objects. This is expressed in the fact that all of